

TA'LIM TARAQQIYOTIDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR SHERIKCHILIGINING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Y. Xodjiev

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi sho'bası dotsent v.b.

yunushodjiev@mail.ru

S. Muxammadiyeva

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim taraqqiyotida davlat va xususiy sektor sherikchiligining huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Unda O'zbekiston Respublikasining davlat-xususiy sheriklik sohasidagi qonunchiligi, xususan, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalarining raqobatbardosh muhitni shakllantirishdagi o'rni, xususiy sektor uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tashabbus qilish va amalga oshirish tartiblari tahlil etilgan. Maqolada tender asosida va to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar orqali bitim tuzish mexanizmlari, tender mezonlarining shaffoflik hamda tenglik tamoyillarini ta'minlashdagi ahamiyati ilmiy-huquqiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida davlat va xususiy sektor hamkorligi ta'lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish hamda malakali kadrlar tayyorlashning muhim omili ekanligi xulosasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: *davlat-xususiy sheriklik, DXSh, ta'lim tizimi, nodavlat ta'lim muassasalari, ta'lim sifati, xususiy sektor, innovatsion yondashuvlar, raqobat muhiti, davlat-xususiy sheriklik loyihalari, tender mexanizmi, to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar, huquqiy mexanizmlar, investitsiyalar, ta'limni modernizatsiya qilish, malakali kadrlar tayyorlash.*

ABSTRACT

This article analyzes the legal mechanisms of public-private partnership in the development of education. It covers the legislation of the Republic of Uzbekistan in the field of public-private partnership, in particular, the content and essence of the Law "On Public-Private Partnership" and its significance in the education system. It also analyzes the role of non-state educational institutions in creating a competitive environment, the favorable conditions created for the private sector, and the procedures for initiating and implementing public-private partnership projects. The article scientifically substantiates the mechanisms for concluding agreements on the

basis of tenders and through direct negotiations, the importance of tender criteria in ensuring the principles of transparency and equality. As a result of the study, the conclusion is put forward that public-private partnership is an important factor in improving the quality of education, developing innovative approaches, and training qualified personnel.

Keywords: *public-private partnership, PPP, education system, non-state educational institutions, quality of education, private sector, innovative approaches, competitive environment, public-private partnership projects, tender mechanism, direct negotiations, legal mechanisms, investments, modernization of education, training of qualified personnel.*

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida nodavlat sektorining o'рни tobora ortib bormoqda. Aholining sifatli ta'limga bo'lgan talabi oshib bormoqda. Shu bois, nodavlat ta'lim xizmatlarini qo'llab-quvvatlash, xususiy sektor ulushini kengaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu model orqali risklar va mas'uliyatlar o'rtasida muvozanat ta'minlanib, uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Shu munosabat bilan, davlat-xususiy sherikchiligi masalalarini o'rganish, uning afzalliklari va qo'llash mexanizmlarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Davlat xususiy sherikchiligini tartibga solish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Davlat xususiy sherikchilik to'g'risida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi hisoblanadi. Ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik (DXSh) — bu umumiy maqsadlarga erishish yo'lida davlat ta'lim muassasalari hamda biznes subyektlari o'rtasida o'zaro manfaatlarga asoslangan hamkorlik shakli bo'lib, ushbu hamkorlik qonunchilik hujjatlari va maxsus bitimlar asosida yo'lga qo'yilib, ta'limga oid loyihalarni amalga oshirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasidagi ittifoq sifatida namoyon bo'ladi. Bunday innovatsion tizim o'quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish, muayyan yo'nalishlarni rivojlantirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy izlanishlar olib borish hamda innovatsion ishlanmalarni yaratish uchun intellektual, moddiy, axborot va inson resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Nodavlat ta'lim muassasalari ta'lim tizimida muqobil va raqobatbardosh muhitni shakllantiradi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatining oshishiga olib keladi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda DXShning rolini aniqlashda quyidagilar alohida muhim jihatlar hisoblanadi: – birinchidan, DXSh subyektlarining tarkibi va ularning o'zaro manfaatlarini aniqlash; – ikkinchidan, sheriklik funktsiyalari tasnifini ishlab chiqish; – uchinchidan, DXShning strategik maqsad va vazifalarini aniqlash.¹

DXSHning asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim sohasidagi imkoniyatlar, qisqa davrda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi; iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida foydalanish imkoniyatining mavjudligi; davlat obyektlariga xususiy moliyalashtirish bo'yicha ko'proq miqdorda mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari; xususiy mablag'lar hisobiga davlat ijtimoiy ob'yektlarini bunyod etishga moliyalashtirish; davlat va xususiy sub'yektlar o'rtasida risklarni taqsimlash; ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari.²

Davlat tomonidan ushbu sektorni qo'llab-quvvatlash quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, xususiy sektor tezkor va moslashuvchan boshqaruv tizimiga ega bo'lib, bozor talablariga tez javob qaytara oladi. Ikkinchidan, nodavlat ta'lim xizmatlari ta'lim qamrovini kengaytirib, aholining turli qatlamlariga xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit yaratish — bu nafaqat iqtisodiy, balki institutsional islohotlarni ham talab etadi. Jumladan: yer ajratish va infratuzilma bilan ta'minlash, kredit resurslariga erkin kirish imkoniyati, davlat organlari bilan o'zaro aloqalarda shaffoflikni ta'minlash, korrupsion omillarni kamaytirish.

Bunday sharoitlar xususiy sektorning ta'limga kirib kelishini jadallashtiradi va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, shuningdek, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida bir qancha imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, Davlat-xususiy sheriklik loyihasini tashabbus qilishda Davlat-xususiy sheriklik loyihasi davlat organi va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkor yoxud yuridik shaxs tomonidan tashabbus qilinishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini tashabbus qilish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirishi mumkin:

¹ Imomov Xolmurod Norqulovich (2025). Ta'lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sherikligi xususiyatlari. "Innovations in Science and Technologies" илмий-электрон журналы, 629-635.

² Sadullayevna, U. V. (2024). Ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 503-510.

davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqishni; davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini baholash, kelishish va tasdiqlash uchun tegishli davlat organiga yuborishni;

vakolatli davlat organi tomonidan davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasini ko'rib chiqishni;

davlat-xususiy sheriklik loyihasi konsepsiyasini vakolatli davlat organi tomonidan ma'qullashni, rad etishni yoki maromiga yetkazish uchun qaytarishni;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining kelishib olingan konsepsiyasining davlat sherigi yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanishini;

davlat-xususiy sheriklik loyihasining konsepsiyasini vakolatli davlat organi tomonidan Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining reyestriga kiritishni o'z ichiga oladi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) to'g'risidagi bitim davlat organi va xususiy sherik o'rtasida tuziladigan hamkorlik hujjati bo'lib, u infratuzilma, ijtimoiy xizmatlar, energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim kabi sohalarda loyihalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Qonunchilikka ko'ra, bunday bitim xususiy sherikni tanlab olishning ikki asosiy usuli orqali tuziladi: tender yoki to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar asosida. Ushbu tartiblar davlat manfaatlarini himoya qilish, raqobatni ta'minlash va eng samarali investorni jalb qilishga qaratilgan. Tenderlar bir bosqichli yoki ikki bosqichli bo'lishi mumkin. Umumiy qiymati bir million AQSH dollariga qadar bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha bir bosqichli tender o'tkaziladi. Umumiy qiymati bir million AQSH dollaridan ortiq bo'lgan ekvivalentdagi davlat-xususiy sheriklik loyihasi bo'yicha ikki bosqichli tender o'tkaziladi. Tender mezonlari davlat-xususiy sheriklik loyihalarida eng muhim tamoyillardan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu mezonlar orqali xususiy sheriklarning takliflari baholanadi va eng maqbul investor tanlab olinadi. Shu sababli tender mezonlari oldindan aniq, tushunarli va shaffof tarzda belgilanishi, shuningdek barcha ishtirokchilarga nisbatan teng va kamsitishsiz qo'llanilishi zarur. Tender mezonlarining aniq belgilanishi, avvalo, talabgorlar uchun teng imkoniyat yaratadi. Ya'ni tenderda qatnashayotgan har bir investor qaysi talablar asosida baholanishini oldindan biladi va o'z taklifini shu mezonlarga mos ravishda tayyorlaydi. Agar mezonlar noaniq yoki mavhum bo'lsa, bu baholash jarayonida turlicha talqinlarga sabab bo'lishi, natijada esa adolatsizlik yoki korrupsiya xavfini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois tender hujjatlarida texnik, moliyaviy, tashkiliy va huquqiy talablar batafsil ko'rsatib o'tiladi.

Tender mezonlari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- huquq layoqatiga ega bo'lishi;

-davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimga doir majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy va (yoki) moddiy, texnik resurslarga va (yoki) malakali mehnat resurslariga ega bo'lishi;

- mavjudligi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan asoslarga ega bo'lmasligi.

Mazkur mezonlar barcha talabgorlarga bir xil qo'llanilishi kerak. Bu degani, hech bir investor uchun alohida imtiyoz yoki cheklov yaratilmasligi lozim. Kamsitishsiz yondashuv raqobat muhitini shakllantiradi va eng yaxshi taklifni tanlash imkonini beradi. Masalan, ma'lum bir kompaniyaga qulaylik yaratish maqsadida ortiqcha yoki sun'iy talablar qo'yilishi qonunchilik tamoyillariga zid hisoblanadi.

Davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim, odatda, tender asosida tuziladi. Biroq ayrim alohida holatlarda davlat manfaatlari, xavfsizlik masalalari yoki loyiha xususiyatidan kelib chiqib, bitim tender o'tkazmasdan, to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar asosida ham tuzilishi mumkin. Bunday tartib davlat sherigining tegishli qaroriga muvofiq amalga oshiriladi va qonunchilikda aniq belgilangan holatlar bilan cheklanadi. Jumladan, davlatning mudofaa qobiliyatini va xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq loyihalarda tender o'tkazilmasligi mumkin. Chunki bunday loyihalar ko'pincha maxfiylik, tezkorlik va strategik ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli davlat organi eng ishonchli va malakali xususiy sherik bilan bevosita muzokaralar olib borish orqali bitim tuzishi mumkin. Bu usul davlat xavfsizligini ta'minlash hamda loyihani qisqa muddatda amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ayrim mutlaq huquqlar yoki mol-mulk muayyan shaxsga tegishli bo'lgan hollarda ham tender o'tkazmasdan bitim tuzilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda loyiha aynan o'sha shaxsning huquqlari yoki mulkidan foydalanishni talab qiladi va boshqa talabgorlar loyiha shartlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

XULOSA

Ta'lim sohasida davlat va xususiy sektor sherikchiligi mexanizmlarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, ta'lim qamrovini kengaytirish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, nodavlat ta'lim muassasalarining faoliyati sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni mazkur hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlab, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikda tender

asosida yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri muzokaralar orqali bitim tuzish tartiblarining belgilanishi shaffoflik, tenglik va raqobat tamoyillarini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xususiy sektor uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar investitsion faollikni oshirib, yangi ta‘lim loyihalarini amalga oshirish imkonini kengaytirmoqda. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda zamonaviy infratuzilmani shakllantirish imkoniyatlari ortmoqda. Natijada ta‘lim tizimining barqaror rivojlanishi, xalqaro standartlarga moslashuvi va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga erishiladi. Shu bois davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini yanada takomillashtirish, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish hamda xususiy investorlarga qo‘shimcha rag‘batlar yaratish kelgusida ta‘lim taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son) <https://lex.uz/docs/-4329270#-4330277>
2. Imomov Xolmurod Norqulovich (2025). Ta‘lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sherikligi xususiyatlari. “Innovations in Science and Technologies” ИЛМИЙ-ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛИ, 629-635.
3. Sadullayevna, U. V. (2024). Ta‘lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 503-510.